


Jinning hikoyasi



Jinning hikoyasi

Jannat rayhonlari

17:31 / 10 октябрь 1582

Assalomu alaykum. Gapni uzoq cho'zmay, o'zimni tanishtirib qo'ya qolsam. Kamina Jin bo'laman. Haligi, siz bolajonlarni kattalar «Ana jin», «Ana ajina», deb qo'rkitishadi-ku. Xuddi o'sha Jinman-da! Lekin aytib qo'yay: men na bolalarni va na kattalarni qo'rkitaman. Ishonmaysizmi? Ayting-chi, musulmon odam birovni bekordan bekor xafa qilishi, ziyon-zahmat yetkazishi mumkinmi? Hech qachon! Musulmon odam bunday qilmaydi. Allohdan qo'rqadi. Allah bunaqa zo'rovonlig-u dilxiraliklarni musulmonlarga buyurmagan. Kamina ham xuddi ana shunaqa musulmon jinlardanman.

«Bundan chiqdi, kofir jinlar ham bor ekan-da?» dersiz. Bo'lganda qanday! Shaytonni bilasiz-a? Shayton kofir jinlar avlodidan bo'ladi. Shuning uchun ham kofir jinlar faqat shaytonlarga xizmat qilishadi. Ular bamisol shaytonning otgan o'qlaridir. Biz – musulmon jinlar Muhammad alayhissalomga birinchilardan bo'lib imon keltirganmiz. Kofir jinlar esa imon keltirishmagan. Kofir jinlar oxiratgacha odamlarga tinchlik berishmaydi. Biz – musulmon jinlar esa, musulmon odamlarni himoya qilamiz. Kimdan deb o'ylayotgandirsiz. Albatta, kofir jinlardan va ularning ustozi bo'lgan shaytoni layindan. Yana bir narsani aytib qo'yay: biz hamisha kofir jinlar bilan jang qilamiz. Biroq hech qachon sizlarning ko'zingizga ko'rinxaymiz. Ammo sizlarni ko'rib turamiz.

«Qayerlarda yashaysizlar?» deysizmi? Musulmon odamlar qayerda yashasa, biz ham o'sha yerda yashaymiz. Biz ham pokiza, chiroyli joylarni makon tutamiz. Kofir jinlar esa eng iflos, tashlandiq joylarda yashashadi. Ular yuvuqsiz, tirnog'-u

sochlari o'siq odamlar atrofida o'ralashganlari o'ralashgan. Biz esa ozoda bolalarni yaxshi ko'ramiz. Bunaqa bolalarning yoniga kofir jinlarni yaqinlashtirmaymiz.

Bizni Payg'ambar Muhammad alayhissalom hamma jonivorlarni ko'rgandek, aniq-tiniq ko'rardilar. Nimaga desangiz, biz Allohning bu ulug' Payg'ambaridan tunlari dars o'qirdik-da, bir xil paytlarda o'zлari bilan bitta sahabalarini ham boshlab kelardilar. U sahabani biz dars o'rganadigan joydan sal nariga o'tqazib qo'yardilar-da, duo o'qib, uning atrofiga aylana chiziq tortardilar. Keyin u kishiga shunday deb uqtirardilar: «Bu chiziq ichida o'Itirgin. Bundan tashqariga chiqa ko'rma. Allohni dilingdan qo'yma. Hech bir narsadan qo'rquvchi bo'lma. Turlituman suratdagi jinlar ko'zingga ko'ringaylar. Ularga gapirma. Ular men tortgan chiziq ichkarisiga kirolmagaylar. Agarda o'zing ushbu chiziqdan tashqariga chiqar bo'lsang, qiyomatgacha ham seni topolmaymiz».

Payg'ambarimizdan dars tinglagani sal-pal ikkilanib yurgan kofir jinlar ham kelishardi. Ular Muhammad alayhissalomning Islomga da'vatlarini eshitishlari hamonoq imon keltirib, musulmon bo'lar, safimizga qo'shilar edilar. Biz tong otguncha dars tinglardik. Ikki o'rtada savol-javoblar bo'lardi. Tong yaqinlashganda biz u kishidan so'rardik: «Yo Rasululloh, «Qur'on»dan tilovat qilib bersangiz. Bizlar muborak lafzingizdan Alloh so'zlarini eshitsak». Bir safar Payg'ambarimiz bizga «Ar-Rahmon» surasini tilovat qilib berdilar. Bu suraning o'ttiz bir yerida «Fabiayyi alaai robbikuma tukazziban» (Alloh sizlarga bergen ne'matlarining qaysi birini yolg'on deb ayta olasiz?) oyati takror kelardi. Rasululloh shu oyatni har gal o'qiganlarida, biz jinlar jo'r bo'lib: «Hech birini yolg'on deya olmaymiz, yo Rabb», deb turdik. Ha, o'ttiz bir marta shunday dedik. Payg'ambarimiz bizdan ko'p xursand bo'ldilar.

Biz – musulmon jinlar Allohning rasuli kofirlar bilan jang qilganlarida bir necha bor u muborak zotga yordam ham bergenmiz. Masalan, Arab sahrosida G'atafon degan bir qabila bo'lib, ular Islomga qarshi bo'lган qavmlarga ittifoqdoshlik qilishardi. Bir kuni kofirlar Muhammad alayhissalomga qarshi urishish uchun g'atafonliklarni yordamga chaqirishdi. G'atafonliklar to'rt ming askar bilan yo'lga chiqdilar. Askar yarim yo'lga yetganlarida «Ey odamlar, ortinglarda qolgan bola-chaqalaringni yov bosdi», deb biz ovoz berdik. Ovozni eshitgach, g'atafonliklarning yuragiga qo'rquv tushdi. Ovoz egasini topisholmagach, battar sarosimada qoldilar va shoshganlaricha orqalariga qaytdilar. Kelib ko'rdilarki, yurtlari tinch, bola-chaqalari omon. Shundoq bo'lsa-da, jangga qaytib bormadilar. U yoqda esa Allohning Rasuli dushmanlar ustidan g'olib keldilar.

Shuning uchun ham Payg'ambarimiz biz haqimizda sahobalarga shunday deganlar: «Musulmon jinlar musulmonlarga hamisha tarafkashdir. Odamsiz keng dalada bir kishi namoz o'qimoqchi bo'lsa, azon aytsin. Aytganda ham sekin aytmasin. Balki qichqirib aytsin. Chunki, azon tovushini eshitgan jin ummatlarim yetib kelib, unga iqtido qilgaylar. Agarda shunday bir joyda bir mo'minning oti hurkib qochsa-yu, uni to'sishga kishi bo'lmasa, unda ot egasi «Ey, mo'minlar, otim qochdi, to'singlar», deb qichqirsin. Mo'min jinlar u otning yo'lini to'sib, to'xtatgay».

Ha, Muhammad alayhissalom nafaqat odamlarni, balki biz jinlarning ham Payg'ambaridirlar. Ul muborak zot biz musulmon jinlarni ham ummatim deganlar.

Mana, azizlar, yaxshilab tanishib ham oldik. Endi kimki mo'min-qobil pokiza bo'lsa, o'sha bilan biz musulmon jinlar do'st bo'lamiz. Irkit, Bismillohsiz ovqat yeydigan odamlarga esa yaqinlashmaymiz. Ular bilan kofir jinlar o'rtoq bo'ladilar. Men unaqa odamlardan bo'lmasligingizga judayam ishonaman.

Erkin bobo

«Хилол» журнали 2 (59) сон